

“MUNGLI KO‘ZLAR” ROMANIDA BADIY PSIXOLOGIZM

Sayfullayeva Dilnoza Dilshod qizi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “O‘zbek va rus tillari” kafedrasi o‘qituvchisi

ARTISTIC PSYCHOLOGISM IN THE NOVEL “SAD EYES”

Sayfullayeva Dilnoza Dilshod kizi, University of World Economy and Diplomacy Teacher of the Department of Uzbek and Russian Languages

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПСИХОЛОГИЗМ В РОМАНЕ «ГРУСТНЫЕ ГЛАЗА»

Сайфуллаева Дилноза Дишиод кызы, преподаватель кафедры узбекского и русского языков университета мировой экономики и дипломатии

Annotatsiya: Maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” romanidagi psixologik tahlil vositalari va bolalar ruhiyatini yoritishdagi badiiy yondashuvlar o‘rganiladi. Asar psixoanalitik va sotsiopsixologik nazariyalar asosida tahlil qilinib, obrazlar orqali jamiyatdagi axloqiy buzilish, oilaviy qadriyatlarning yemirilishi va shaxsiy taraqqiyot jarayoni yoritiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy psixologizm, adabiyot, ruhiy kechinmalar, adabiy kechinmalar.

Abstract: the article studies the means of psychological analysis and artistic approaches to illuminating the psyche of children in the novel “Sleepy Eyes” by Khudoyberdi Tokhtaboyev. The work is analyzed on the basis of psychoanalytic and sociopsychological theories, and through images, the moral decay in society, the erosion of family values, and the process of personal development are illuminated.

Keywords: artistic psychologism, literature, spiritual experiences, literary experiences.

Аннотация: в статье рассматриваются инструменты психологического анализа и художественные подходы к освещению психики детей в романе Худойберди Тохтабоева «Грустные глаза». Произведение анализируется на основе психоаналитических и социально-психологических теорий и посредством образов освещает моральный упадок общества, эрозию семейных ценностей и процесс личностного развития.

Ключевые слова: художественный психологизм, литература, духовные переживания, литературные переживания.

KIRISH. Badiiy adabiyot inson ichki olamini, ruhiy kechinmalarini tasvirlash orqali uni chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu jarayonda psixologizm asosiy estetik tamoyil sifatida namoyon bo‘lib, obrazlar orqali insonning ichki ziddiyatlarini yoritadi. Badiiy psixologizm — bu inson ruhiyatini, kechinmalarini ifodalashda yozuvchining individual uslubi bilan uyg‘unlashgan tahliliy yondashuvdir. Adabiyotshunoslikda psixologizm masalasi XIX asrda rus tanqidchisi N.G.Chernishevskiy tomonidan konseptual tarzda ilgari surilgan. U o‘zining “Tan-

langan adabiy-tanqidiy maqolalar” to‘plamida psixologik tahlilning adabiy asardagi roli, uning badiiy ifoda vositasi sifatidagi ahamiyati haqida chuqr mulohazalar bildirgan. Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek adabiyotida, xususan, bolalar adabiyotida bu yo‘nalish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM. Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodida, ayniqsa “Mungli ko‘zlar” romanida psixologik yondashuv chuqr va ta’sirchan badiiy ifoda topgan. Romandagi asosiy qahramon Zafar obrazi orqali yozuvchi jamiyatdagi axloqiy



<https://orcid.org/0009-0007-5519-629X>

e-mail:
delmuradova@bk.ru

muammolar, oilaviy tarbiyaning yetishmovchiligi va boylik orqasidan quvish oqibatlarini olib beradi. Zafarning shakllanishida oilaviy muhit, ijtimoiy bosim, illatlar tizimi asosiy omillar sifatida ko'rsatib beriladi¹. Zafar obrazini tahlil qilishda psixoanalitik yondashuv, ayniqsa Z.Freyd va K.G.Yung nazariyalari asosida yondashish roman ichidagi ichki ziddiyatlar va ruhiy evolyutsiyani chuqur anglash imkonini beradi. Bu obraz shunchaki sarguzashtli hayotga duchor bo'lgan o'smir emas, balki ichki kurashlar, ongsiz istaklar, ijtimoiy bosim va ruhiy kollapslar girdobida to'qnash kelgan kompleks psixotip vakilidir. Zigmund Freydning psixoanalitik yondashuvida inson shaxsiyatini uch asosiy tizim — Id, Ego va Superego dan iborat.

Zafar obrazi orqali Xudoyberdi To'xtaboyev nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni — boylik va mansab orqasidan quvish, axloqiy tanazzulni, balki inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini ham olib beradi. Freydning shaxsiy tarkibiy qismlari (id, ego, superego) va Yungning arxetipleri nazariyasi asosida olib borilgan tahlil, bu obrazda insonning ichki dunyosi qanday ziddiyatli, murakkab va o'zgaruvchan bo'lishini ko'rsatadi. Zafarning ruhiy o'zgarishi — bu o'zlikni topish, ongsizlik ustidan ongning g'alabasi, ijtimoiy qadriyatlarga qarshi ichki axloqning tiklanishi jarayonidir. Romanda bosh qahramon Zafarning ruhiy kechinmalari, ichki monologlari va dialoglari orqali uning shaxsiy va ijtimoiy ongining asta-sekin o'zgarib borishi, ya'ni ruhiy evolyutsiyasi mohirlik bilan tasvirlanadi. Zafar dastlab o'zini jamiyatdagi ko'pchilik tengdoshlari bilan taqqoslab, ularning ustidan qarovchi, maqtanchoq va moddiy ustunlikni qadriyat deb biluvchi obraz sifatida ko'rindi. U quyidagicha fikr yuritadi:

"Daromadimiz goho, dadamning aytishi-cha, o'n ming so'mdan ham oshib ketardi, eshit-yapsizmi, o'n ming deyapman! Ilhomning dasasi avtobus haydaydi, bir yuz-u sakson so'mdan ortiq ololmaydi... Bizda esa o'n ming! Shularni o'ylab, yo'q, baribir, senlar bizdan yuqori bo'lolmay-sanlar, deb o'ylardim... Qamoqxonaga tushgunim-ga qadar faqat import kiyganman. Import odamni ulug'sifatiroq, madaniyroq ko'rsatadi". Bu parcha

Zafarning dunyoqarashi, xususan, ijtimoiy stratifikatsiya va mulkiy tafovutlar borasidagi tasavvurlarining qanday shakllanganini ko'rsatadi². U o'zining oilaviy daromadini boshqalar bilan qiyoslab, moddiy ustunlikni ijtimoiy maqom belgisi sifatida talqin qiladi. Psixologik tahlil nuqtayi nazaridan bu holat ijtimoiy identifikasiya va o'z-o'zini baholash mexanizmlarining ilk bosqichlarida kuzatiladigan hodisadir. Uning "*import kiyimlar odamni madaniyroq ko'rsatadi*" degan fikri esa jamiyatdagi tashqi ko'rinishga asoslangan ijtimoiy stereotiplar ta'sirini aks ettiradi. Bu yerda iste'mol madaniyati, simvolik kapital va ijtimoiy status o'rtasidagi bog'liqlik seziladi. Zafar o'zini nafaqat moddiy boylik orqali, balki tashqi ko'rinish orqali ham yuqori tabaqaga mansub deb his qiladi³.

Zafar obrazi orqali muallif jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni nafaqat tashqi tizim sifatida, balki inson ongida shakllanuvchi, ichki hissiyorlar va o'zlikni anglash bilan bog'liq murakkab holat sifatida ham talqin qiladi. Zafarning keyingi ruhiy o'zgarishlari va hayotiy sinovlar orqali ijtimoiy haqiqatlarni chuqurroq anglay boshlashi, uning shaxsiy o'sishi va ijtimoiy ongining o'zgarishi jarayonini ko'rsatadi.

Zafarning evolyutsiyasi — bu nafaqat individual qahramonning ichki o'zgarishi, balki ijtimoiy muhitning, boylik va mansabga intilishning, axloqiy qadriyatlar bilan to'qnashgan paytidagi insoniy azob-u iztiroblarning umumlashgan ifodasidir. Bu orqali muallif ijtimoiy tengsizlik, axloqiy tanazzul va halollikning qiymati kabi dolzarb mavzularni yoritadi. Jumladan, bilimi bilan ustun turadigan sinfdosh o'rtoqlarini boy ekanliklari bilan ezishdan zavq oladi: "*Sinfimizdagi a'lochilar bilimlariga mahliyo bo'lib, o'zlaricha kerilib, maqtanib qo'yishadi. Bu esa hali aytganimdek menga hecham yoqmaydi, g'ashim keladi, xo'rlangandek bo'lamani. G'ururim qo'zg' ab o'zimni qo'yarga joy to-polmay qolaman. Tug'ilgan kunlarni nishonlaganimizda... sho'ring qurg'ur a'lochilarining ta'zirini berib qo'yaman. Biri kitob, boshqasi bir so'm yigirma tiyinlik sassiq atir ko'tarib boradi. Men bo'lsam sovg'aning eng kattasini qilaman. Hammasining ko'zi o'ynab ketadi. Aybdorning*

¹ Rasulov, A. (2008), "G'aroyib saltanat" "Jahon adabiyoti" jurnali, 6-son.

² Rasulova U. Devotees of knowledge //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 1270-1274.

³ Tulabayeva, R.S. 2022. "Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o'ziga xosligi". "O'zbekiston: til va madaniyat". 2(2): 54-62.

yoniga o‘tqizib, tabrik uchun so‘zni birinchi bo‘lib menga berishadi. Uy egalari xursand, mehmonlar xursand. To‘g‘ri-da, yaxshi sovg‘a kimga yoqmaydi. Oyijonim hamisha bergen xudoga yoqibdi, derdi. Judayam to‘g‘ri. Sovg‘a har qanday kishining dilini yumshatib, qalbida shafqat hissini uyg‘otadi”.

Zafar va Akbar obrazlarini qarama-qarshi ruhiy holatlar, ma’naviy pozitsiyalar va ijtimoiy qadriyatlar asosida kontrastli tahlil qilish “Mungli ko‘zlar” romanining asosi g‘oyaviy qatlamin ochib beruvchi muhim adabiy vositadir. Bu ikki obraz vositasida muallif ijtimoiy ong, axloqiy qarashlar va shaxsiy tanlovlardan orasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Zafar va Akbar — ikki turli dunyoqarash egasi, ikki xil shaxsiy evolyutsiya yo‘lini bosib o‘tuvchi xarakterlar timsolidir. Zafarning akasi Akbar umuman boshqa — ruhan kuchli, kitobsevar, sabrli obrazdir. Akbar nogiron bo‘lishiga qaramay, “ruhiy salomatlik” mezoni sifatida ilgari suriladi. U jamiyatdagi ma’naviy ustunlik timsolidir. Akbar va Zafar obrazlari qarama-qarshi fazilatlar vositasida kontrastli tahlil asosida berilgan. Bu esa adabiy vosita sifatida obrazlar orqali g‘oyaviy qatlamlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Romanda ko‘tarilgan muammolardan biri — oilaviy qadriyatlarning yemirilishi va ota-onaning farzand tarbiyasidagi beparvoligidir. Yozuvchi jamiyatda boylik hamma narsani hal qiladi degan noto‘g‘ri stereotipni fosh etadi. Ota-onaning moddiy ta’minotni ustuvor qo‘yib, mehr-muhabbat, samimiylikdan yiroqlashishi bolalarda ruhiy bo‘shliq va axloqiy inqirozni keltirib chiqaradi⁴. Yoqutxon va Saidxonlarning fikr-u xayoli boylik to‘plab, farzandlarini bashang kiyintirishda edi. Zafar, Zufar, Nigora tashqi ko‘rinishga ahamiyat beradigan, kelishgan bolalar bo‘lsalar-da, qalbi, ma’naviyati o‘ta qashshoq edi. Masalan, Nigora obrazida bolalik beg‘uborligi va estetik sezgirlik bilan bir qatorda, uning ongida shakllanayotgan ijtimoiy-moddiy qadriyatlar tizimi ham aks etgan. Muallif Xudoyerdi To‘xtaboyev bu obraz orqali yosh avlod vakillarining axloqiy tarbiyasi, xususan, nafs va mulkka munosabat masalasini dolzarb ijtimoiy muammo sifatida ilgari suradi. Quyidagi dialog orqali Nigoraning shaxsiy qarashlari, o‘z

mulkini himoya qilish istagi va moddiy boyliklarga qaratilgan ehtirosi ko‘zga tashlanadi:

“Biz jinoyatchi emasmiz, to‘g‘rimi, oyijon? Mebellarimizni ro‘yxat qilishdi, olib qo‘yishmaydimi? Jon oyijon, bermaymiz, xo‘pmi? Arab mebellarini menga atab olgansiz...”

Bu satrlarda qizchaning ichki dunyosida shakllanayotgan mulkchilik instinkti yaqqol ko‘rinadi. U o‘zini jinoyatchi emas deb tasdiqlashga urinarkan, bir vaqtning o‘zida oilaviy mulk sifatida tasavvur qilgan mebellarni “bermaslik” zaruratini ta’kidlaydi. Bu yerda ijtimoiy ongda paydo bo‘layotgan mulkka egalik tuyg‘usi va unga nisbatan bo‘lgan affektiv (hissiy) munosabat namoyon bo‘ladi. Pedagogik va psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, bolalar ongida mulkka bo‘lgan munosabat oila va ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Masalan, V.S.Muxina va L.I.Bojovichning bolalar psixologiyasiga oid tadqiqotlarida qayd etilishicha, yosh bolalarda moddiyatga haddan ziyod bog‘lanish, ya’ni nafsning ilk shakllari, ko‘proq kattalarning bularga bergen bahosiga mos ravishda shakllanadi. Nigoraning *“Arab mebellarini menga atab olgansiz... rosa maqtashgan...”* degan gaplari aynan kattalarning bahosini o‘zlashtirish natijasi sifatida talqin etilishi mumkin.

XULOSA. Xudoyerdi To‘xtaboyevning “Mungli ko‘zlar” romani zamonaviy bolalar adabiyotida psixologik yondashuvning yorqin namunasi bo‘lib, unda bolalar ruhiyati, ijtimoiy muhit ta’siri va shaxsiy o‘zgarishlar murakkab badiiy shaklda ifodalangan. Asar intellektual qahramonlar yaratish, o‘quvchini axloqiy jihatdan tarbiyalash va jamiyatdagi muammolarni ochib berishda muhim adabiy manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Rasulov, A. (2008). G‘aroyib saltanat. //Jahon adabiyoti jurnali, 6-son.
2. Rasulova U. Devotees of knowledge. //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 10. – C. 1270-1274.
3. Tulabayeva, R.S. 2022. Yozuvchi biografiyasi va bola ruhiyati o‘ziga xosligi. O‘zbekiston: til va madaniyat. 2(2): 54-62.
4. Umarali Normatov. Sarguzasht sardori.//Sharq yulduzi, 2012-4.

⁴ Umarali Normatov, “Sarguzasht sardori”. //Sharq yulduzi, 2012-4.